

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH: DAVR TALABI

Otelbayev Bekzod Atabek ug`li

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 301-guruhi kursanti

Anotatsiya: Ushbu maqolada giyohvandlik tushunchasi , uning jamiyatga qanday ziyon keltirishi hamda bu kabi zararli odatlarning oldini olish bo`yicha bir qancha muammolar va takliflar keltirilgan.

Abstract: This article presents the concept of drug addiction , how it harms society , and several problems and suggestions for preventing such harmful habits.

Аннотация: В статье рассматривается понятие наркомании, ее вред обществу , а также ряд проблем и предложений по профилактике таких пагубных привычек.

Kalit so`zlar: Giyohvandlikka qarshi kurash, hamkorlikni tashkil etish, psixotrop moddalar, huquqni muhofaza qilish organlari.

Giyohvandlik,dunyoning ko`plab mamlakatlarida jiddiy ijtimoiy,iqtisodiy va sog`liq muammolariga sabab o`lib kelmoqda. O`zbekistonda ham bu mummo keskin tus olgan,ayniqsa so`nggi yillarda yoshlar o`rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish zaruriyati tobora oshib bormoqda.Giyohvandlikka qarshi kurashish esa nafaqat jismoniy va psixologik yordamni ta`minlshni , balki jamiyatdagi barcha qatlamlarni ogohlantirish va ma`rifatni oshirishni ham talab etadi. Giyohvand moddalar odam organizmi uchun juda xavfli bo`lib,uning jismoniy va ruhiy holatini buzadi.Ularning uzoq muddatli va tartibsiz foydalaniishi insonni qaramlikka olib keladi,natijada sog`liq,ijtimoiymunosabatlar va iqtisodiy munosabatlar va ijtemoiy hayot yomonlashadi.Giyohvand modddalar bilan bog`liq bo`lgan jinoyatchilik darajasi ortadi,oila munosabatlari buziladi va ko`plab mehnat resurslari isrof bo`ladi.Shuningdek, giyohvandlikning tarqalishi o`zg xos qiyinchiliklar,mehnat bozoriga kirishda to`sqliar va jinoyatlarning ko`payishini keltirib chiqradi. Giyohvandlikka qarshi kurashish davlat va jamiyatning muhim vazifasiga aylangan. Hukumatlar giyohvandlikka qarshi kurashishda qat`iy qonunlar va siyosatlarni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

amalga oshirishlari kerak. Biroq jazolashning o`zi yetarli emas. Giyohvandlikka qarshi kurashish jarayonida, shuningdek, profilaktik tadbirlar, reabilitatsiya markazlari va sog`liqni saqlash xizmatlarining roli muhimdir. Jamiyatda giyohvandlikning oldini olish, faqat yuridik chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Yaxshi ta`lim, xabardorlik va odamlarni muammoga qarshi kurashish usullari bilan tanishtirish, giyohvandlikka qarshi kurashning samarali vositalaridan birdir. Yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi targ`ibot va o`zini tutish ko`nikmalarini shakllantirish juda muhimdir. Giyovandlikka qarshi kurashishda eng muhim elementlardan biri bu tibbiy yordam va reabilitatsiya jarayonidir. Giyohvand moddalariga qaram bo`lgan shaxslar uchun psixologik yordam, davolash va reabilitatsiya markazlari yaratish zarur. Giyohvndlarni davolash va ularni jamiyatga qaytarish jarayoni uzoq va qiyin, ammo bu ishni amalga oshirish muhimdir. Davolash jarayoni nafaqat dori darmonlar bilan, balki psixologik yordam, ijtimoiy qo`llab-quvvatlash va reabilitatsiya dasturlari bilam ham to`ldirilishi kerak. Giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktik tadbirlarning roli juda katta. Bu jarayonda ta`lim muassasalarining, oilaning, ommaviy axborot muassasalarining o`rni ajralmasdir. Yoshlar orasida giyohvandlikka nisbatan ma`rifatli bo`lish va ularni zararli odatlardan ogohlantirish muhimdir. O`zini giyohvandlikdan himoya qilishni o`rgatish, yoshlar o`rtasida giyohvandlikning xavf-xatarlari haqida tushuncha shakllanishi kerak. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida keng targ`ibot ishlari olib borilishi lozim. Bu bilan jamiyatni giyohvandlikka qarshi kurashga jalb qilish mumkin. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar giyohvandlikka qarshi kurashda kuchli vosita bo`lishi mumkin, chunki ular keng auditoriyaga tezda yetib borishi mumkin. Giyohvandlikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Giyohvand moddalarining savdosi va ularning noqonuniy tarqalishi global miqyosdagi muammo bo`lib, unga qarshi kurashish faqat milliy darajada emas, balki xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilishi lozim. Bu borada xalqaro tashkilotlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti (JSST) va boshqa global tuzilmalar hamkorlikda ishslashni davom ettirishlari kerak. Giyohvandlikka qarshi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kurashish - bu jamiyatning barcha a`zolarining mas`uliyati. Bu masala faqat sog`lijni saqlash sohasida emas , balki ijtimoiy , iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham o`zgarishlarni talab qiladi. Giyohvandlikka qarshi kurashishning muvaffaqiyatli bo`lishi uchun nafaqat qonunlar va siyosatlarni kuchaytirish , balki odamlarning ongini shakllantirish profilaktik tadbirlarni kuchaytirish va ijtimoiy qo`llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarur . Bu borada davlat, jamiyat , ta`lim muassasalari va xalqaro hamkorlik o`rtasidagi hamjihatlik giyohvandlikka qarshi kurashishda muhim omil bo`ladi. Giyohvandlikka qarshi kurash davr talabi shuningdek, jamiyat oldida turgan katta muammo hisoblanadi.Bu illatning oldini olish uchun davlat organlari,muassasalar,nodavlat notijorat tashkilotlari,huquqni muhofaza qilish organlari birdek samarali ish olib borishi zarur. Bu illatning oldini olishda asosiy vazifani huquqni muhofaza qilish organlari ado etadi.Shuning uchun mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurash oyligi,qora dori tadbirlari kabi bir qator profilaktik tadbirlar joriy etilgan bo`lib hisoblanadi.Bu illatning oldini olishdagi asosiy muammolarga to`xtaladigan bo`lsak, yoshlarning nazoratsiz qolib ketishi , chegaradagi e`tiborsizlik, fuqarolar orsida huquqiy ongning pastligi kabilar. Bu illatning oldini olishda dronlardan foydalanish,ommaviy axborot vositalaridan foydalanish,fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish ko`proq foyda beradi.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ:

- 1. Скворцов, В.В.** (2018). Психологические аспекты вовлечения в употребление наркотических средств. — М.: Издательство "Наука".
- Гуревич, В.Л.** (2017). Наркотики и общество: социальные и правовые последствия. — СПб.: Издательство "Юридическая литература".
- Шматко, А.С.** (2019). Психотропные вещества и их воздействие на личность. — Екатеринбург: Издательство "Уральский университет".
- Овчинников, И.И.** (2016). Вовлечение молодежи в употребление наркотических средств: причины и последствия. — Новосибирск: Издательство "Сибирское образование".
- Орлов, В.П.** (2020). Проблемы наркозависимости в России и пути их решения. — М.: Издательство "Юрист".